

"University of economics and pedagogy" oly ta'lim muassasasi filologiya kafedrasи mudiri, dotsent F. K. Xabibullayeva taqrizi ostida

Ahmadjonova Azizaxon Anvarjon qizi University of Economics and Pedagogy ingliz tili filologiya yo‘nalish 1-bosqich talabasi Tel:+99899-614-67-78 E-mail: [azizaahmadjonova09@gmail.com](mailto:azizaahmadjonova09@gmail.com)

## ZAMONAVIY TA’LIMDA CHET TILINING O’RNI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Chet tillarni oson va tez o‘rganish hamda chet tillarining foydali tomonlari yoritib berilgan. Bundan tashqari Buyuk olimlarimiz chet tili haqida aytib o‘tgan fikr hamda mulohazalari taxlil qilingan. Hozirgi kunda chet tiliga bo‘lgan talablardan kelib chiqib zamonaviy ta’limga chet tilini o‘rni haqida va chet tillarini bizga qanchalik kerakligi va hayotimizdagи o‘rni qay darajada muhimligi tushuntiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Tarix, chet tili, psixologiya, konsentratsiya zamonaviy ta’lim muhiti, yangi qadriyat va madaniyatlar, fikrlash, dunyo qarash, madaniy va manaviy meros.

## РОЛЬ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация:** В данной статье рассказывается, как легко и быстро выучить иностранные языки, а также о пользе иностранных языков. Кроме того, проанализированы мнения и комментарии наших великих учёных об иностранных языках. На основании требований к иностранным языкам сегодня, роли иностранных языков в современном образовании и того, насколько нам нужны иностранные языки. Проанализирована их роль в нашей жизни, объяснена важность.

**Ключевые слова:** История, иностранный язык, психология, современная образовательная среда, новые ценности и культуры, мышление, мировоззрение, культурное и духовное наследие.

## THE ROLE OF A FOREIGN LANGUAGE IN MODERN EDUCATION

**Abstract:** This article tells how to easily and quickly learn foreign languages, as well as the benefits of foreign languages. In addition, the opinions and comments of our great scientists about foreign languages are analyzed, based on the requirements for foreign languages today, the role of foreign languages in modern education and how much we need foreign languages. Their role in our lives is analyzed, the importance is explained.

**Key words:** History, foreign language, psychology, modern educational environment, new values and cultures, thinking, worldview, cultural and spiritual heritage.

## KIRISH

Insoniyat yaralibdiki odamlar bir-birlari bilan o‘zaro til orqali muloqotga kirishib kelishmoqda. Til bu xalqlarning bir-biriga bog’lovchi betakror fenonem hisoblansa, boshqa tarafdan esa turli millatlarni bir- biridan ajratuvchi o‘ziga xos noyob hodisadir. Bugungi kunda til o‘rganish juda ham muhim. Bunga misol tarixdan malumki qaysi xalq vakillari qancha ko‘p til bilsa shuncha tez va mukammal taraqqiyot yo‘liga chiqsa olganlar.

Xo'sh chet tillarini o'rganish bizga nima beradi? Va nima uchun muhim hisoblanadi? Bugungi kunda zamonaviy ta'linda chet tilining o'rni beqiyos, sababi xozirgi kunda chet tiliga bo'lgan ehtiyojlarimiz keskin oshib bormoqda. Butun dunyo yoshlari bilan birga fikr almashish uchun va dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun ham bitta emas balki bir nechta chet tillarini o'rganishimiz kerak. Zamonaviy ta'linda chet tilining foydali tomonlari talaygina, jumladan: chet tilida so'z boyligi oshishi, fikrlash doirasi kengayishi, tengdoshlariga nisbatan teranroq fikrlashi mukin. "Hozirda ko'plab davlatlar o'zlarini ona tilidan tashqari boshqa kerak bo'lgan tillarni o'rganishmoqda va tillarni o'zlashtirish har qanday yoshdag'i insonlarni o'ziga jalb qilmoqda chunki tillarni o'zlashtirish boshqa mamlakatlardagi madaniyatlar, tarixi urf odatlarini o'rganish bilan birga ushbu tilde ravon gapirishka ham zamin yaratadi. Halqimizda bir maqol bor "Til bilgan-el biladi" tariximizga ham bir nazar solsak bizning buyuk otabobolarimiz ham chet tillarini o'rganishka intilganlar: Misol uchun ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobi shunchalik ko'p tillarni bilganki tarixiy manbalarda va xalq orasida, "Forobi yetmishdan ortiq tilni biladi", degan haqli e'tirofga sazovor bo'lgan". [1]

## NATIJALAR

Chet tilini o'rganishda sabrsizlik qilmaydigan odam kamdan kam topiladi. Kuf-suf desangu tilni o'rganib qo'ya qolsang. Lekin bu u qadar oson ish emas, shu bilan birga, tasavvurdagiday qiyin ish ham emas. Istalgan xorijiy tilni o'rganishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan eng muhim jihat bu qobiliyat va istakdir. Qobiliyat masalasida qo'rqmasangiz bo'ladi, chunki u har bir odamda bor. "2006-yili amerikalik olim Richard Sparks o'z tadqiqotlari bilan til o'rganish uchun allaqanday olamshumul tug'ma iste'dodlar kerak degan fikr asossiz ekanini isbotladi. Endi istakka kelsak. "Istak – bu minglab imkoniyatdir, xohlamaslik esa – minglab bahonadir" degan hikmatli gap juda topibaytilgan va quydagi manbalar sizlarga juda foydali bo'lishi mumkun:

- 1. So'zlashgichlardan foydalaning.** Juda ko'p tilchi olimlar fikricha, tilni so'zlashgichlar yordamida o'rganish alohida so'z va iboralarni, gap qurilishini yodda saqlab qolishga katta turki beradi. Tilni birinchi shaxs tilidan aytildigan tayyor jumlalar orqali o'rganayotgan odam gaplarni shunchaki takrorlamaydi, o'zini ma'lum holat-vaziyatlarda his etadi.
- 2. Qoida bo'yicha ishlang.** Mutaxassislar yangi so'zlarni o'zlashtirishning juda unumli usulini topdi. Kuniga 30 ta so'z yodlaysiz, ularning 5 tasi fe'l bo'lishi kerak.
- 3. She'r va qo'shiqlarni o'rganing.** Eng yoqimli va samarali usullardan biri xorijiy she'r, qo'shiqlarni ularning tarjimalari bilan birga o'rganishdir.
- 4. Mazmunni anglang.** Xorijiy tillarni o'zlashtirish bo'yicha tadqiqot olib boruvchi ruhshunoslar juda ko'p odamlar yo'l qo'yadigan bitta xatoga e'tibor qaratdi: o'rganuvchilar ko'pincha suxandonning gapi yoki diktofonidagi suhbatni to'liq tushunib yetish payida bo'ladi.
- 5. Vaziyatni his qiling.** Tilni o'rganishga kirishgan ilk kunlaringizdanoq atrof-tevarakdag'i narsalar, hodisalar va holatlarni ifoda etishga intiling. Masalan, o'quvchi va o'qituvchi oshxonadagi suhbatni "uyushtirish"lari mumkin." [2] Xorijiy tilni o'rganish mohiyati — boshqa odamlar bilan muloqotdan iborat. Tillarni o'rganish bizga magistratura va boshqa oliy ta'lif muasasalarini chet davlatlarida o'z malakalarimizni taminlab beradi. Til o'rganayotkan jarayonimizda bizda Konsentratsiya yaxshilaydi: Misol uchun "Amerikalik olimlar tadqiqot o'tkazib, bir nechta tillarni biladigan kishilarga so'zlarni tushunish bo'yicha topshiriqlar berdi va ularning tomograflarini kuzatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bunday odamlar faqat bitta tilda gapiradiganlarga nisbatan, o'xshash so'zlarni yaxshi aniqlay oladi. Ushbu qobiliyat turli chalg'ituvchi omillarni bloklab, bitta vazifaga diqqatni qaratishga yordam beradi va Chet tilini o'rganishda yangi axborotni eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi, bu o'qish vaqtini kamaytiradi. Buning ustiga, ko'p til biladiganlar bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishga moyil bo'ladi." [3].

## XULOSA

Chet tillari yordamida biz o‘z o‘qish faoliyatlarimizni boshqa ko‘plab chet davlatlarda davom etirishga sazovor bo‘lishimiz mukin, bu esa bizga boshqa rivojlanayotgan chet davatlarning ta’lim tizimini o‘rganishda hamda uni o‘rganib amaliyotgan tadbiq qilishda muhum ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’limda yaniy hozirgi kunda chet tilini o‘rganish bu O‘zbegimimn urf odatlarini nafaqat davlatimiz hududida balki boshqa chet davatlarda ham che ttilida faxrlanib so‘zlab berish va yurtimizga boshqa davlat yoshlariда qiziqish uyg‘otish tariximiz bilan tanishtirish kabi ishlarni olib bordas bo‘ladi. Demak zamonaviy ta’limda chet tiliga bo‘lga ehtiyoj oshgani sari biz yoshlar to‘xtalmay ilim izlashimiz kerak, ahir Muxtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: siz osmonni olmoq istasangiz men nechun yelkamni tutmay degan so‘zlarini yaqqol intilishimiz uchun turki emasmi. Yurtboshimiz yana bir so‘zni takidladi qilgan barcha say-harakatlarim jonajon vatanimizning yoshlariга zamin yaratish uchun mana shu ekkan daraxtlarimiz hali juda katta meva beradi men bunga ishonaman hali Beruniylar paydo bo‘ladi Ibrat domlalarga o‘xshagan ma’rifatparvarlar paydo bo‘ladi Ulug’beklar paydo bo‘ladi degan so‘zlaridan so‘ng yanada ilm izlanmaslikka haqqimiz yoq deb hisoblayman ahir kelajak biz yoshlar qo‘lida.

### Foydalanimizga yaroqchilik:

1. Международный научный журнал № 7(100), часть 1 «Научный импульс» Февраль, 2023

XORIJIIY TILLARNI O’RGANISHNING HAYOTIMIZDAGI TUTGAN O’RNI VA O’RGANISH SABABLARI Mamatova Laylo Ulug’bek qizi (608-bet)

2. <https://sinaps.uz/maqola/7894/>.
3. <https://daryo.uz/2017/03/28/chet-tillarini-organishning-foydalari-nima-siz-bilmagan-5-ta-fakt>.